

BO'LAJAK PEDAGOGLARGA INTERFAOL RAG'BATLANTIRISH USULLARINI O'RGATISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Axmedova Dilnoza Xabibullo qizi

University of economics and pedagogy NOTM o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14607475>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarga interfaol rag'batlantirish usullarini o'rgatishning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Xususan, "Samoviy yulduzlar burchagi" metodining amaliy ahamiyati, ushbu metodni qo'llashni talabalarga o'rgatishda innovatsion yondashuvlar va ularning oliy ta'lim hamda umumiy o'rta ta'limga ta'siri yoritilgan. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, Kahoot, Mentimeter va ClassDojo kabi platformalarning rag'batlantirish tizimidagi o'rni muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: interfaol rag'batlantirish, pedagogik imkoniyatlar, Samoviy yulduzlar burchagi, innovatsion yondashuvlar, oliy ta'lim, o'rta ta'lim, zamonaviy texnologiyalar.

Bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Farmonida "oliy ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish va pedagoglarning ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha ishlarni mazmunli va maqsadli tashkil etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish" ishlari belgilab qo'yildi[1]. Shuningdek, so'nggi yillarda oliy ta'lim sifatini oshirish bo'yicha qabul qilgan qaror va farmonlari natijasida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish dolzarb masalalardan biriga aylandi. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini oshirish uchun interfaol metodlar, jumladan, rag'batlantirishning innovatsion usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Interfaol rag'batlantirish usullari o'qitish jarayonini yanada samarali qilish bilan birga, talabalarni o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, pedagogik faoliyatni yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish o'qituvchilar uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi. Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarga interfaol rag'batlantirish usullarini o'rgatishning pedagogik imkoniyatlari, xususan, "Samoviy yulduzlar burchagi" metodining amaliy ahamiyati, ushbu metodni qo'llashni talabalarga o'rgatishda innovatsion yondashuvlar va ularning oliy ta'lim hamda umumiy o'rta ta'limga ta'siri yoritiladi.

Interfaol rag'batlantirish usullari o'qitish jarayonini yanada samarali qilish bilan birga, talabalarni o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi. Shuningdek, pedagogik faoliyatni yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish o'qituvchilar uchun zarur kompetensiyalarni shakllantirishga yordam beradi.

Vigotskiy ta'kidlaganidek, "ta'lim jarayoni ijtimoiy o'zaro hamkorlik orqali rivojlanadi va bu jarayonda rag'batlantirish usullari muhim rol o'ynaydi"[2].

Devey esa tajribaga asoslangan ta'limning ahamiyatini ta'kidlab, o'quv jarayonida faollik va interfaollikning ta'sirini yoritib bergan [3].

Interfaol rag'batlantirish usullari bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilarga nisbatan individual yondashuvlarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu metodlar orqali talabalar faqat nazariy bilim olish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish bo'yicha real

amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Rag'batlantirish usullarining muhim jihatlardan biri bu - o'quvchilarda o'z-o'zini nazorat qilish va mas'uliyat hissini shakllantirishdir.

Zamonaviy texnologiyalar ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish uchun quyidagi platformalar samarali qo'llanilishi mumkin:

- **Kahoot** – dars jarayonida test va viktorinalar orqali interfaol o'qitish;
- **Mentimeter** – talabalar fikrini real vaqt rejimida o'rganish va baholash;
- **ClassDojo** – o'quvchilarning bilim va xulq-atvorini nazorat qilish, rag'batlantirish tizimini shakllantirish.

Ushbu platformalar bo'lajak pedagoglar uchun zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish ko'nikmasini rivojlantiradi va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorlaydi.

Interfaol rag'batlantirish usullari nafaqat oliy ta'limda, balki umumiy o'rta ta'limda ham samarali qo'llanilishi mumkin.

- Oliy ta'limda bu usul talabalarni mustaqil fikrlash va o'qitish jarayoniga chuqur jalb etish imkoniyatini yaratadi.
- Umumiy o'rta ta'limda esa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirib, ularning ta'lim sifati yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Masalan "Samoviy yulduzlar burchagi" deb nomlanga interfaol rag'batlantirish metodini olsak, ushbu metod o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash va ularning ta'lim jarayonidagi intizomini oshirishga qaratilgan. Metod quyidagicha amalga oshiriladi:

- O'quvchilar darsda qatnashishi, faol ishtirok etishi va bilimlarini namoyon qilishi orqali yulduzchalar to'playdi;
- Yulduzcha yig'ish tizimi rag'batlantirishning samarali usuli bo'lib, o'quvchilarning intellektual va ijodiy faolligini oshiradi;
- Dars yakunida eng ko'p yulduzcha to'plagan o'quvchilar turli mukofotlar yoki imtiyozlarga ega bo'ladilar[4].

Mazkur metod bo'lajak pedagoglarga talabalar bilan ishlashda qanday interfaol vositalarni qo'llash mumkinligi haqida aniq tasavvur beradi.

Bo'lajak pedagoglarga interfaol rag'batlantirish usullarini o'rgatish zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Interfaol metodlarning ta'limga ta'siri nafaqat o'quvchilarning faolligini oshiradi, balki ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik yo'nalish bo'yicha tahsil olayotgan talabalar ushbu usullar orqali nafaqat nazariy bilim, balki amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari mumkin.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi, 08.10.2019 yildagi PF-5847- son Farmoni
2. Vygotsky, L.S. (1978). "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes". Harvard University Press.
3. Dewey, J. (1938). "Experience and Education". Macmillan.
4. Ахмедова Д. О'quvchilarni interfaol usulda rag'batlantirish orqali tarbiyalash va intellektini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari (boshlang 'ich sinflar misolida) //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 9/5. – С. 121-127.